

SUD HUJJATLARINING IJROSINING XALQARO VA O'ZBEKISTON HUQUQ TIZIMIDAGI QIYOSIY TAHLILI

Ozodov Inoyatullo Alisher o'g'li

inoyatullo007@gmail.com

Jurakulova Rushana Sharofovna

ORCID 0009-0007-6706-0592

jurakulovarushana74@gmail.com

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xususiy huquq fakulteti 3-kurs talabalari.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14825948>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida sud hujjatlarini ijro etish tizimi, uning muammolari va takomillashtirish yo'llari xalqaro tajriba (AQSh va Germaniya misolida) bilan solishtirilgan. Maqolada O'zbekistonda ijro tizimini tubdan isloh qilish va raqamlashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, shuningdek, ijro ishlarini yuritishda duch kelinadigan muammolar tahlil qilingan. Xususan, Majburiy ijro byurosining (MIB) faoliyati, ijrochilarning vakolatlari va ijro jarayonidagi qonuniy tartiblar ko'rib chiqilgan. Maqolada ijro ishlarini yanada samarali tashkil etish va xususiy sektorni jalb qilish kabi takliflar ham keltirilgan.

Kalit so'zlar: Sud hujjatlari ijrosi, Majburiy ijro byurosi (MIB), Ijrochilar vakolatlari, Xususiy sektor, Raqamlashtirish, AQSh va Germaniya tajribasi, Ijro ishlarini isloh qilish.

COMPARATIVE ANALYSIS OF THE EXECUTION OF COURT DOCUMENTS IN THE INTERNATIONAL AND UZBEK LEGAL SYSTEMS

Abstract. This article examines the system of enforcement of court documents in the Republic of Uzbekistan, its challenges, and ways of improvement, with a comparative analysis of international practices (using the examples of the USA and Germany). The article analyzes the reforms and digitalization measures being implemented in Uzbekistan to improve the enforcement system, as well as the problems faced in the execution of court decisions. In particular, the activities of the Compulsory Enforcement Bureau (CEB), the powers of enforcement officers, and legal procedures in the enforcement process are discussed. The article also proposes measures to make enforcement more efficient, including the involvement of the private sector.

Key words: Enforcement of court documents, Compulsory Enforcement Bureau (CEB), Powers of enforcement officers, Private sector, Digitalization, USA and Germany experience, Reform of enforcement system.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ИСПОЛНЕНИЯ СУДЕБНЫХ ДОКУМЕНТОВ В МЕЖДУНАРОДНОЙ И УЗБЕКСКОЙ ПРАВОВОЙ СИСТЕМАХ

Аннотация. В данной статье рассматривается система исполнения судебных документов в Республике Узбекистан, её проблемы и пути совершенствования, с проведением сравнительного анализа международного опыта (на примере США и Германии). В статье анализируются меры по коренному реформированию и цифровизации системы исполнения в Узбекистане, а также проблемы, с которыми сталкиваются при исполнении судебных решений. В частности, обсуждаются деятельность Бюро принудительного исполнения (БПИ), полномочия судебных исполнителей и правовые процедуры в процессе исполнения. В статье также предлагаются меры по повышению эффективности исполнения, включая привлечение частного сектора.

Ключие слова: Исполнение судебных документов, Бюро принудительного исполнения (БПИ), Полномочия судебных исполнителей, Частный сектор, Цифровизация, Опыт США и Германии, Реформа системы исполнения.

KIRISH:

O'zbekiston Respublikasi ilk mustaqillik yillaridan boshlab bugungi kungacha sudlarning samarali ishlashini, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoyalash, buzilgan huquqlarini tez va to'liq tiklash maqsadida sud tizimida juda ko'plab o'zgarishlarni amalga oshirayotganining guvohi bo'lmoqdamiz. Jumladan, bugungi kunda sudlarning amalda mustaqilligi to'liq ta'minlandi va sudyalarning mustaqilligiga ta'sir o'tkazishi mumkin bo'lgan barcha holatlarga cheklov qo'yildi, bu o'z navbatida fuqarolarning qonunga va davlatga bo'lgan ishonchini oshiradi, buzilgan huquqlarning tez va samarali tiklanishiga zamin yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 130-moddasida, O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida" gi qonunining 9-moddasida sudlar qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi organlardan, siyosiy partiyalardan va boshqa fuqarolik jamiyati institutlaridan mustaqil ekanligi belgilangan.¹ [O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 01.05.2023. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. 130-modda. O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida" gi 703-sonli 28.07.2021-yildagi qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. 9-moddasi] Sud protsessi sudda ish qo'zg'atish bilan boshlanib ijro hujjati berish bilan yakunlanishi barchamizga ma'lum, buzilgan huquqlarni sud tomonidan tiklanishi albatta yaxshi natija hisoblanadi, ammo uning ijrosi-chi degan savol yuzaga keladi?

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 01.05.2023. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. 130-modda
O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida" gi 703-sonli 28.07.2021-yildagi qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. 9-moddasi

Bugungi kunda O'zbekistonda sud va boshqa organ hujjatlarining ijrosini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.05.2017-yildagi 5059-son "Elektr energiyasi va tabiiy gaz yetkazib berish hamda iste'mol qilish sohasida to'lov intizomini yanada mustahkamlash, shuningdek, ijro ishi yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoniga ko'ra tashkil etilgan Majburiy ijro buyrosi (keyingi o'rinlarda Byuro deb yurutilinadi) ta'minlab bermoqda.² [O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.05.2017-yildagi 5059-son "Elektr energiyasi va tabiiy gaz yetkazib berish hamda iste'mol qilish sohasida to'lov intizomini yanada mustahkamlash, shuningdek, ijro ishi yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.]

Sobiq Adliya vazirligi huzuridagi Sud departamentining 2015-yil noyabr oyidan 2017-yilning iyun oyiga qadar bo'lgan faoliyati davomida 17,8 trln.so'm undirilgan bo'lsa, 2017-yil iyun oyidan 2018-yilning dekabr oyigacha ya'ni MIB tashkil etilganligiga endi 19 oy bo'lganiga qaramay 26,3 trln.so'm undirilgan. Ammo 2019-yildagi statistik ma'lumotlarga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, o'sha yildagi 3 million 700 ming ijro hujjatidan 2 million 700 mingining ijrosi MIB organi tomonidan ijrosi ta'minlangan, ammo 1 million hujjatning ijrosi qilinmagan. Bu o'z navbatida Byuroning tizimida yetarlicha muammolar mavjud ekanligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 03.01.2024-yildagi 1-sonli "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimini isloh etish va sohani raqamlashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida " gi farmonida ham MIBning tuzilma va vazifalari majburiy ijro tizimi rivojlanishining zamonaviy talablari va jahon tendensiyalariga to'liq javob bermaydi deb ta'kidlab o'tilgan.³ [O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 03.01.2024-yildagi 1-sonli " Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimini isloh etish va sohani raqamlashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida " gi farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi ma'lumotlar milliy bazasi.]

Ushbu maqolada ham sud hujjatlarining ijrosi bilan bog'liq masalalarni MIB tuzilmasi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar bilan birgalikda tahlil etib o'tiladi.

METODOLOGIYA:

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining qonunchiligini xorijiy mamlakatlar qonunchiligi bilan taqqoslash, mavjud muammoli vaziyatlarni O'zbekiston Respublikasining

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.05.2017-yildagi 5059-son "Elektr energiyasi va tabiiy gaz yetkazib berish hamda iste'mol qilish sohasida to'lov intizomini yanada mustahkamlash, shuningdek, ijro ishi yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.

³ O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 03.01.2024-yildagi 1-sonli "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimini isloh etish va sohani raqamlashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida " gi farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi ma'lumotlar milliy bazasi.

qonun hujjatlari asosida huquqiy tahlil qilish va jamiyatda yuzaga kelayotgan muammolarni misollar asosida tushuntirib berish usullari qo'llanilgan.

TADQIQOT NATIJALARI

Quyida biz sud hujjatlarini ijro etish tizimi bo'yicha Amerika Qo'shma Shtatlari hamda Germaniya qonunchiligi tahlilini amalga oshiramiz.

Amerika Qo'shma Shtatlarida sud hujjatlarini ijro etishni bevosita tartibga soluvchi biron-bir butun mamlakat hududida umummajburiy xarakterga ega bo'lgan hujjat mavjud emas, bu jarayon har bir shtatning o'z qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Bu qoida Amerika Qo'shma Shtatlari Fuqarolik protsessining federal qoidalarining 69-qoidasida ham mustahkamlangan bo'lib, unda sud hujjatlarining ijrosi qaysi shtat hududida amalga oshirilishi kerak bo'lsa, shu shtat qonunlariga muvofiq amalga oshirilishi belgilangan⁴ [Federal Rules of Civil Procedure, Rule 69]. Shuningdek, Amerika Qo'shma Shtatlari Konstitutsiyasining 4-moddasida belgilangan O'zaro ishonch to'g'risidagi bandga ko'ra har bir shtat sudi boshqa shtat sudining qarorini ijro etishi shart bo'lib hisoblanadi⁵ [U.S. Constitution, Article IV, Section 1]. AQShda sud hujjatlarining ijrosini ta'minlovchi mas'ul shaxslar – hududiy miqyosda sheriflar, hududlararo miqyosda esa marshallar hisoblanadi.

Qo'shma Shtatlar fuqarolik-protsessual qonunchiligiga ko'ra, sud ishni yakunlagandan so'ng dastlab "Qaror bildirishnomasi"(Notice of Judgement) shaklidagi ijro hujjatini chiqarib, uni taraflarga yuboradi. Xuddi bizdagi kabi AQShda ham sud qarorining ijrosini ixtiyoriy ta'minlash uchun dastlab ishda yutqazgan tarafga muddat beriladi. Ushbu muddat har bir shtat qonunchiligiga qarab o'zgarib boradi. Basharti qarzdor sud qarorining ijrosini ixtiyoriy tarzda qanoatlantirmasa, u holda kreditor ijrochi xodimga, ya'ni, hududiy sheriff yoki marshalga murojaat qilishi mumkin bo'ladi. Sheriflarning vakolat va vazifalari har bir shtatning o'z qonunchilik hujjatlari, masalan, Kaliforniya fuqarolik-protsessual kodeksi(California Code of Civil procedure) kabilar bilan belgilansa, marshallarniki 28 U.S. Code § 566 nomli qonun hujjati bilan belgilab qo'yilgan⁶ [28 U.S. Code § 566 – Powers and duties of United States marshals]. Sheriflar sud tomonidan chiqarilgan qarorga asosan boshqa organlardan mustaqil ravishda harakat qiladi.

Basharti qarzdor tomonidan undiruv qoplab berilmasa, Qo'shma Shtatlar qonunchiligiga muvofiq nisbatan jiddiyroq choralar qo'llaniladi. Masalan ijro hujjati(writ of execution) orqali qarzdorning mol-mulki musodara qilinishi mumkin(seizure of property)⁷. Bundan tashqari qarzdorning bank hisoblari muzlatilishi(Bank Account Garnishment) va undagi summalar undiruvga qaratilishi yohud undiruv qarzdorning maoshi hisobidan amalga oshiriladi.

⁴ https://www.law.cornell.edu/rules/frcp/rule_69

⁵ <https://www.law.cornell.edu/constitution/articleiv>

⁶ <https://www.law.cornell.edu/uscode/text/28/566>

⁷ California Code of Civil Procedure, Division 2, Part 3. <https://www.law.cornell.edu/uscode/text/28/566>

AQSHning ko'pgina shtatlarida sud qarorlari va ularning ijro hujjatlari elektron shaklda taqdim etiladi, bu esa ijro jarayonini tezlashtirib, hujjatlarning yo'qolish xavfini kamaytiradi. AQShda PACER(Public Access TO Court Electronic Records) federal tizimi orqali sud qarorlari, ijro hujjatlari va boshqa hujjatlar ommaga taqdim etib boriladi. Ijrochilar(sheriflar va marshallar)da qarzdorlarning bank hisoblarini avtomatik tarzda tekshirish imkoniyati mavjud bo'lib, ular bu orqali qarzdorlarning moliyaviy holatini tezda aniqlab, undiruv va zarur hollarda musodara jarayonini osonlashtirishlari mumkin.

Germaniyada esa sud hujjatlarining ijrosi jarayoni Germaniya fuqarolik protsessual-protsessual kodeksi (Zivilprozessordnung) bilan tartibga solinadi. Ijro masalalari bilan esa sud ijrochilari (Gerichtsvollzieher) shug'ullanadi. Ijrochilar mahalliy sudlar (Amtsgericht) huzurida joylashgan bo'lib, ular sud hujjatlari ijrosini ta'minlash borasida mustaqil harakat qilish huquqiga egalar. Ularda, shuningdek, qarzdorning mol-mulki, daromadlari xususida ma'lumotni talab qilish, bank hisoblarini tekshirish va qarzdorning mol-mulkini musodara qilish vakolatlari mavjud.

Germaniyada sud hujjatlarini, xususan pul undirish bilan bog'liq sud qarorlarini amalga oshirish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- Sud hal qiluv qarori bo'yicha ijro buyrug'i (zwangsvollstreckung) chiqaradi va uni undiruvchiga beradi;
- Undiruvchi sud ijrochisiga murojaat qiladi va bu bo'yicha to'lovni amalga oshiradi;
- Sud ijrochisi undiruv harakatlarini amalga oshiradi. Bunda ijrochida qarzdordan moliyaviy holati haqida yozma ma'lumot talab qilish, uning bank hisoblari, ko'chmas mulklari va boshqa aktivlarini tekshirish huquqi mavjud. Sud ijrochilarida davlat reyestrlari va bank tizimlari orqali qarzdorning mol-mulkini avtomatik aniqlash imkoniyati mavjud bo'lib, agar qarzdor o'zining moliyaviy ma'lumoti haqida noto'g'ri ma'lumot taqdim etsa, u holda javobgarlikka tortilishi mumkin⁸.

Ahamiyatlisi shuki, Germaniyada sud hujjatlari ijrosi elektron tizim orqali amalga oshiriladi. Ijrochilar (Gerichtsvollzieher) qarzdorlarning mol-mulki va bank hisoblarini elektron tarzda tekshirish imkoniyatiga ega. **Zentrales Vollstreckungsgericht** markaziy tizimi orqali ijrochilar qarzdorlarning mol-mulki va moliyaviy holati haqida tezda ma'lumot olishlari mumkin. Germaniyada ijrochilar qarzdorlarning bank hisoblarini avtomatik tarzda muzlatish (Pfändung) imkoniyatiga ega. Bu jarayon elektron tarzda amalga oshiriladi va qarzdorlarning moliyaviy holati haqida to'liq ma'lumot beradi. Ijrochilar davlat reyestrlari (Grundbuch, Fahrzeugregister) bilan bevosita aloqada bo'lib, qarzdorlarning ko'chmas mulki va avtomobillarini tezda aniqlashlari mumkin.

⁸ Zivilprozessordnung (ZPO) - <https://www.gesetze-im-internet.de/zpo/>

Endi O'zbekiston Respublikasidagi ijro qanday amalga oshirilishini tahlilini qilib o'tamiz. O'zbekiston Respublikasining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida" gi qonunining 3-moddasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini majburiy ijro etish O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi organlarining davlat ijrochilari zimmasiga yuklatilgan.⁹ [O'zbekiston Respublikasining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida" gi 29.08.2001-yildagi 258-II-son qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.]

Demak, O'zbekiston Respublikasidagi ijro ishini MIB organlarining davlat ijrochilari olib borar ekan. Yuqorida ta'kidlangan qonunning 8¹-moddasida, MIB organlariga taalluqli ishlar bayon etilgan unga ko'ra:

Majburiy ijro byurosining hududiy boshqarmalari quyidagi turdagi ishlarni:

turli tumanlarda (shaharlarda) joylashgan bir nechta qarzdorga, shu jumladan solidar javobgarligi bo'lgan qarzdorlarga nisbatan berilgan ijro hujjatlarini;

ijro hujjati taqdim etilgan kundagi bazaviy hisoblash miqdorining ellik ming baravaridan yuz ming baravarigacha miqdordagi summani undirishni nazarda tutuvchi ijro hujjatlarini;

chet davlatning rezidenti bo'lgan yuridik shaxsga nisbatan ijro hujjatlarini ijro etadi.

Majburiy ijro byurosining markaziy apparati:

turli viloyatlarda joylashgan bir nechta qarzdorga, shu jumladan solidar javobgarligi bo'lgan qarzdorlarga nisbatan berilgan ijro hujjatlarini;

ijro hujjati taqdim etilgan kundagi bazaviy hisoblash miqdorining yuz ming baravari miqdoridagi va undan ortiq miqdordagi summani undirishni nazarda tutuvchi ijro hujjatlarini;

Chet dvlatlarga, ularning davlat organlariga, chet davlatlarning O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan diplomatik vakolatxonalariga, shuningdek ularning diplomatik immunitetga ega bo'lgan xodimlariga nisbatan berilgan ijro hujjatlarini ijro etadi.

Qolgan turdagi barcha ishlar MIBning tuman (shahar) bo'limlari tomonidan amalga oshiriladi.

Ijro ishida taraflar undiruvchi va qarzdor hisoblanadi va bundan tashqari ijro ishida vakillar, tarjimon, mutaxassislar ishtirok etishi mumkin, qarzdorning xonalari va omborlarini ochish, mol-mulkini ko'zdan kechirish, xatlash, olib qo'yish va berish bilan bog'liq ijro harakatlarida xolislar ishtirok etishi shart hisoblanadi. Ushbu norma qonunchilikka 2019-yil 30-iyulda kiritilgan hisoblanadi, bunga sabab sifatida amaliyotda uchrayotgan bir qancha muammoli vaziyatlarni misol qilib keltiramiz. MIB ijrochilari uy-joyga majburiy kiritish va uy-joydan majburiy

⁹ O'zbekiston Respublikasining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida" gi 29.08.2001-yildagi 258-II-son qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.

ko'chirish turdagi ishlarda juda qiyin vaziyatlarga duchor bo'lishgan. Jumladan, hech qanday xolisarsiz borgan ijrochiga nisbatan turli tuhmatlar qilingan, masalan, uy-joydan majburiy ko'chirish uchun kelgan davlat ijrochisi kelganda uydagi ayol menga zo'ravonlik qilmoqchi bo'ldi deb, mahalladagi odamlarni chaqirgan holatlari yoki uy-joyga majburiy kiritishda eri istiqomat qilib kelayotgan uyga ayolini majburiy kiritgan ijrochi ketganidan ayolini va o'zini o'ldirish holatlari kabi ayanchli voqealar yuz bergan. Shu kabi holatlarni oldini olish uchun ham xolislar ishtiroki ta'minlangan.

Ijro ishi quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Ijro ishi ijro hujjati olingan paytdan e'tiboran bir ish kuni ichida qo'zg'atinishi haqida davlat ijrochisi tomonidan qaror chiqariladi.

2. Qarorda ixtiyoriy ijro uchun qarzdorga ijro ishi qo'zg'atilgan vaqtdan boshlab ko'pi bilan 15 kun muddat belgilanadi.

3. Agarda ixtiyoriy ijro etish muddatida ijro amalga oshirilmasa, majburiy ijro etilishi to'g'risida qarzdor xabardor qilinadi.

4. Ijro ishi yuritishni qo'zg'atish to'g'risidagi qaror nusxasi u chiqarilgan kunning ertasidan kechiktirmay undiruvchiga, qarzdorga, shuningdek hujjati ijro etilishi lozim bo'lgan sud yoki boshqa organga yuboriladi.

5. Ijro harakatlari ish kunlarida soat 8.00 dan 22.00 gacha amalga oshirilishi kerak. Ijro harakatlarini sutkaning boshqa vaqtida yoki dam olish va bayram kunlarida quyidagi hollarda amalga oshirish mumkin: 1) kechiktirib bo'lmaydigan hollarda; 2) qarzdorning aybiga ko'ra ularni boshqa vaqtda amalga oshirish mumkin bo'lmaganda.

6. Majburiy ijro harakati ijro ishini qo'zg'atish to'g'risidagi qarorda ko'rsatilgan ixtiyoriy ijro muddati o'tganidan so'ng boshlanib, ko'pi bilan 2 oy muddat ichida amalga oshirilib, ijro etilishi kerak.

Sud hujjatlari asosida beriladigan ijro varaqalari uch yil ichida ijroga topshirilishi mumkin, davriy to'lovlarni undirish to'g'risidagi (alimentlar undirish, sog'liqqa shikast yetkazilgani oqibatidagi zararni qoplash to'g'risidagi ishlar) sud hujjatlari bo'yicha ijro hujjatlari to'lovlarni undirishning belgilangan butun davrida o'z kuchini saqlab qoladi. Shuningdek, sud hujjatlari ixtiyoriy va majburiy darhol ijro etiladigan turlarga bo'linadi. Masalan, Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarning quyidagi hal qiluv qarorlari darhol ijro etilishi shart:

- 1) alimentlar undirish to'g'risidagi;
- 2) xodimga uch oylik ish haqidan ortiq bo'lmagan ish haqini undirib berish to'g'risidagi;
- 3) mayib bo'lganlik yoki sog'liqqa boshqacha tarzda shikast yetkazilganligi, shuningdek boquvchisi vafot etganligi natijasida ko'rilgan zararning o'rnini qoplash uchun to'lovlar undirish to'g'risidagi;

4) mehnat shartnomasi g'ayriqonuniy ravishda bekor qilingan xodimni yoki g'ayriqonuniy ravishda boshqa ishga o'tkazilgan xodimni avvalgi ishga tiklash to'g'risidagi, shuningdek mehnat shartnomasini bekor qilish asoslarining ta'rifini o'zgartirish to'g'risidagi;

5) sil kasalligining yuqumli shakliga chalingan shaxsni sil kasalligiga qarshi kurashish muassasasining ixtisoslashtirilgan bo'linmasiga g'ayriixtiyoriy tartibda yotqizish to'g'risidagi yoki uning ushbu muassasada yotishi muddatini uzaytirish to'g'risidagi;

6) sudda ishni muhokama qilish vaqtida javobgar da'voni butunlay yoki qisman tan olganligiga qarab, to'liq yoki qisman qanoatlantirilgan talablar bo'yicha chiqarilgan hal qiluv qarorlari darhol ijro etilishi kerak.

“Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida” gi qonunning 30-moddasida ham:

Ijro hujjatlarining quyidagi talablari darhol ijro etilishi kerak:

alimentlar hamda uch oydan oshmagan ish haqini undirish to'g'risidagi talablar;

qonunga xilof ravishda mehnat shartnomasi bekor qilingan yoki qonunga xilof ravishda boshqa ishga o'tkazilgan xodimni ishga tiklash to'g'risidagi, mehnat shartnomasini bekor qilish asosining ta'rifini o'zgartirish to'g'risidagi talablar;

Ijro hujjatida bayon etilgan talablar darhol ijro etilishi hujjatda ko'rsatilgan yoki darhol ijro etilishi qonunda nazarda tutilgan hollardagi boshqa ishlarga doir talablar darhol ijro etilishi kerakligi belgilangan.

Yuqoridagi ishlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, masalan, aliment undirish bilan bog'liq ishlar darhol ijro etilishi kerak, bunga sabab bolaning normal rivojlanishi uchun ham, uni och qolmasligi uchun bu turdagi ishlar darhol ijro etilishi kerak. Shuningdek, mayib bo'lganlik yoki sog'liqqa boshqacha tarzda shikast yetkazilganligi, shuningdek, boquvchisi vafot etganligi natijasida ko'rilgan zararining o'rnini qoplash uchun to'lovlarni undirish to'g'risidagi ijro ishi ham darhol amalga oshirilishi kerak, chunki bu holatda shikastlangan xodim davolanishi kerak bo'ladi, ta'minotchi bo'lgan oilani boquvchisi vafot etsa uning oilasidagilarning moddiy ahvoli yomonlashadi shu sababli ham bu ishlar darhol ijro etilishi kerak.

Suddagi da'vogar yoki javobgar chiqarilgan hal qiluv qaroriga hamda uning darhol ijro etilishiga rozi bo'lgan hollarda, muallifning intellektual faoliyati natijalaridan foydalanganlik uchun haq undirib berish to'g'risidagi hal qiluv qarori, alohida holatlar natijasida hal qiluv qarorining ijrosini kechiktirish undiruvchi uchun ko'p zarar keltirishi mumkin bo'lgan yoki ijro etish mumkin bo'lmay qolgan barcha boshqa ishlar bo'yicha sudning hal qiluv qarorlari butunlay yoki qisman darhol ijro etilishiga yo'l qo'yiladi.

Ijro ishini yuritishda ikki xil tushuncha bor: **ijro ishini tugatish va to'xtatish** degan, bularni ham bir-biridan farqlab olishimiz kerak:

Ijro ishini to'xtatish ixtiyoriy va majburiy bo'ladi.

Ijro ishi yuritishni to'xtatib turishning majburiy holatlari quyidagilar:

Ijro ishi yuritish quyidagi hollarda sud tomonidan to'xtatib turilishi shart:

- 1) agar sud tomonidan aniqlangan huquqiy munosabat huquqiy vorislikka yo'l qo'ysa, qarzdor vafot etganda, u vafot etgan deb e'lon qilinganda yoki bedarak yo'qolgan deb topilganda;
- 2) agar qonunchilikda nizolashishga yo'l qo'yilgan bo'lsa, qarzdor ijro hujjati yuzasidan sud tartibida nizolashganda;
- 3) ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatiga ega organlarning qarorlari (mansabdor shaxslarning harakatlari) ustidan sudga shikoyat berilganda;
- 4) ijro hujjati bo'yicha undiruv qaratilgan mol-mulkni ro'yxatdan chiqarish (xatlashdan ozod qilish) to'g'risida sudga da'vo arizasi berilganda;
- 5) Ijro ishi davlat ijrochisi tomonidan to'xtatilishi mumkin bo'lgan holatlar ham yuzaga kelsa sud tomonidan to'xtatib turilishi shart.

Ijro ishi yuritish quyidagi hollarda davlat ijrochisi tomonidan to'xtatib turilishi shart:

- 1) qarzdor muddatli harbiy xizmatda bo'lganda yoki muddatli harbiy xizmatda bo'lgan undiruvchi iltimos qilganda;
 - 2) qarzdorning to'lovga qobiliyatsizligi to'g'risidagi ish bo'yicha iqtisodiy sud tomonidan ish yuritish qo'zg'atilganda, shu jumladan kuzatuvni joriy etish, sud sanatsiyasini yoki tashqi boshqaruvni joriy etish va (yoki) ularning muddatini uzaytirish haqida iqtisodiy sud tomonidan ajrim qabul qilinganda, bundan ijro etilishi "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq to'xtatib turilishi mumkin bo'lmagan ijro hujjatlari mustasno;
 - 2¹) qarzdor muomalaga layoqatsiz deb topilganda;
 - 3) ijro hujjatini berish uchun asos bo'lgan sud hujjatini yoki boshqa organ hujjatini ijro etishni to'xtatib turish huquqi qonunda berilgan mansabdor shaxs tomonidan qaror chiqarilganda;
 - 4) undiruvchi mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilganda, agar ijro ishi avval mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish munosabati bilan to'xtatib turilmagan bo'lsa, ijro ishi yuritish davlat ijrochisi tomonidan to'xtatib turilishi shart hisoblanadi.¹⁰
- [O'zbekiston Respublikasining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida" gi 29.08.2001-yildagi 258-II-son qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.]

Quyidagi hollarda ixtiyoriy to'xtatib turilishi mumkin:

Ijro ishi yuritish quyidagi hollarda sud tomonidan to'xtatib turilishi mumkin:

¹⁰ O'zbekiston Respublikasining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida" gi 29.08.2001-yildagi 258-II-son qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.

1) qarzidor yoki undiruvchi ijro hujjatini bergan tegishli sudga yoki boshqa organga ijro hujjatini kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib ijro etish, ijro etish usuli va tartibini o'zgartirish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilganda;

2) qarzidor uzoq muddatli xizmat safarida bo'lganda;

3) qarzidor statsionar davolash muassasasida davolanayotganda;

4) davlat ijrochisining harakatlari (qarorlari) ustidan shikoyat berilganda;

5) ro'yxatga olingan mol-mulkni baholash natijalari yuzasidan nizolashilganda;

Ijro ishi yuritish quyidagi hollarda davlat ijrochisi tomonidan to'xtatib turilishi mumkin:

1) davlat ijrochisi ijro etilishi lozim bo'lgan sud hujjati yoki boshqa organ hujjatini tushuntirish to'g'risidagi, ijro hujjatini kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib ijro etish haqidagi, ijro etish usuli va tartibini o'zgartirish to'g'risidagi arizalar bilan ijro hujjatini bergan tegishli sudga yoki boshqa organga murojaat qilganda;

2) qarzidor jismoniy shaxs, uning mol-mulki yoki olib qo'yilishi lozim bo'lgan bola qidirilayotganda;

3) davlat ijrochisi tomonidan jarima tariqasidagi jinoiy jazoni boshqa jazo turiga almashtirish to'g'risida sudga taqdimnoma kiritilganda;

4) undiruvchi iltimos qilganda, ijro ishini yuritish davlat ijrochisi tomonidan to'xtatib turilishi mumkin.¹¹ [O'zbekiston Respublikasining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida" gi 29.08.2001-yildagi 258-II-son qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.]

Ijro ishi to'xtatilganda muddatlar ham to'xtaydi va bu ijro ishini yuritish to'xtatib turilishiga sabab bo'lgan holatlar bartaraf etilgandan so'ng qayta tiklanadi va barcha muddatlar to'xtatilgan vaqtdan boshlab davom etadi.

Ijro ishi quyidagi holatlarda tugatilinadi:

Ijro ishi yuritish quyidagi hollarda sud tomonidan tugatiladi:

1) undiruvchi yoki qarzidor vafot etganda, u vafot etgan deb e'lon qilinganda, bedarak yo'qolgan deb topilganda, agar sud hujjati yoxud boshqa organning hujjatida qo'yilgan talablar yoki majburiyatlar huquqiy vorisga yoki bedarak yo'qolganning mol-mulkini ishonchli boshqarib turgan shaxsga o'tishi mumkin bo'lmasa;

2) muayyan harakatlarni amalga oshirish yoxud bunday harakatlarni amalga oshirishdan o'zini tiyish majburiyatini yuklovchi ijro hujjatini ijro etish imkoniyati yo'qolganda.

Ijro ishi yuritish quyidagi hollarda davlat ijrochisi tomonidan tugatiladi:

¹¹ O'zbekiston Respublikasining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida" gi 29.08.2001-yildagi 258-II-son qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.

- 1) undiruvchi undiruvdan voz kechganda, agar voz kechish sud tomonidan qabul qilingan bo'lsa;
- 2) undiruvchi va qarzdor o'rtasida sud tomonidan tasdiqlangan kelishuv bitimi tuzilganda;
- 2¹) undiruvchi va qarzdor o'rtasida mediativ kelishuv tuzilganda;
- 3) jarima tariqasidagi jinoiy jazoni boshqa jazo turiga almashtirish yoxud jarima tariqasidagi jinoiy jazodan amnistiya aktiga asosan ozod qilish to'g'risida sud tomonidan ajrim chiqarilganda;
- 4) ijro hujjatini berishga asos bo'lgan sud hujjati yoki boshqa organning hujjati bekor qilinganda yoxud qonunga ko'ra ijro hujjati bo'lgan hujjat bekor qilinganda yoki haqiqiy emas deb topilganda.¹² [O'zbekiston Respublikasining " Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida" gi 29.08.2001-yildagi 258-II-son qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.]

Agarda ijro ishi yuritish tugatilnadigan bo'lsa, ijro ishi yuritish tugatilgan ijro hujjati ijro ishi yuritish materiallarida qoladi va takroran ijroga qaratilishi mumkin emas.

Shuningdek ijro ishini **tugatish bilan tamomlashning o'zaro farqli jihatlari bor** ekanligini ta'kidlab o'tishimiz kerak. Ijro ishi amalga oshirilmay turib tugatilinsa, tamomlashda ijro to'liq amalga oshirilishi natijasida tamomlanadi, shuningdek, tugatilinganda umuman o'sha ish turi uchun ijro tugatilnadi, ammo tamomlanganda masalan, boshqa ijrochiga o'tkazilganda bu qayta tiklanishi yoki tugatuvchi tomonidan amalga oshirilishi mumkin, tugatilinganda bunga yo'l qo'yilmaydi.

Ijro ishi yuritish quyidagi hollarda tamomlanadi:

- ijro hujjati amalda ijro etilganda;
- yig'ma ijro ishi yuritishga birlashtirilgan ijro hujjatlaridagi undiruv to'g'risidagi talablar bir yoki bir nechta solidar javobgar qarzdor hisobidan amalda ijro etilganda;
- ijro hujjati uni bergan sudning yoki boshqa organning talabiga binoan ijro etilmasdan qaytarilganda;
- ijro hujjati "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida" gi qonunning 40-moddasida ko'rsatilingan asoslarga ko'ra qaytarilganda;
- ijro hujjati ijro etish uchun boshqa davlat ijrochisiga yuborilganda;
- Ijro hujjati ijro etish uchun tugatish komissiyasiga (tugatuvchiga, tugatish boshqaruvchisiga) yuborilganda tamomlanadi.¹³ [O'zbekiston Respublikasining " Sud hujjatlari

¹² O'zbekiston Respublikasining " Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida" gi 29.08.2001-yildagi 258-II-son qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.

¹³ O'zbekiston Respublikasining " Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida" gi 29.08.2001-yildagi 258-II-son qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.

va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida" gi 29.08.2001-yildagi 258-II-son qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.]

Bugungi kunda ijro bilan bog'liq muammolar yetarlicha deb ta'kidlashimiz mumkin, amalda ko'plab hujjatlar ijro etilgani bilan, ijro etilmay qolganlari ham yetarlicha hisoblanadi. "O'zbekiston-2030" strategiyasiga e'tibor beradigan bo'lsak, sud va boshqa organlarning hujjatlarini ijro etish bilan bog'liq bo'lgan ijro harakatlarining 30 foizi miqdorini xususiy sektorga berish ko'zda tutilgan. Bu o'z navbatida MIB ga nisbatan raqobat muhitini shakllantiradi va uni yanada samarali ishlashiga turtki bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, bugungi kunda eng muammoli yana bir ijro masalalaridan biri sifatida kredit shartnomasi asosida yuzaga kelayotgan qarzdorlik deb aytishimiz mumkin. Chunki juda katta miqdordagi kredit qarzdorligi bo'lgan tadbirkorlik subyektlari to'lovga qobiliyatsiz bo'lib qolmoqda va buning natijasida bu summalarni undirish imkonsiz bo'lib qolmoqda, shu jihatlarni ham takomillashtirish va qonunchilikni vujudga kelayotgan ijtimoiy munosabatlarga yanada moslashtirishimiz lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR:

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda ijro masalasini ta'minlash uchun turli, maqsadli, tizimli harakatlar amalga oshirilmoqda, masalan, MIB davlat ijrochilari hisoblanagan ijrochilar o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lsa ularni qayta o'qitish va MIB ga oliy ma'lumotli ijrochilarni qabul qilish tizimi joriy etilgan, shuningdek, yuqorida ta'kidlab o'tkanimizdek xorijiy davlatlarning amaliyotida qo'llanilayotgan xususiy sektorlar ijrochilik masalasi ham bugungi kunda amalga oshirilishi ko'zda tutilmoqda. Ammo bu o'zgarishlarning hammasi ham barcha mavjud muammolarni bartaraf eta olmaydi. Chunki O'zbekistonda ijro etilishi kerak bo'lgan hujjatlarning soni ijro etilgan hujjatlar sonidan ko'p hisoblanadi, agarda ijroni ta'minlay olsak ko'zlagan maqsadimizga erisha olamiz. Buning uchun MIB faoliyatini Bosh prokuratura huzuridan chiqarib o'zini mustaqil tuzilma qilish taklifi ham olg'a suriladi va bu yanada MIBning faoliyatida ma'suliyatli bo'lishni talab etadi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 01.05.2023. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. 130-modda
2. O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida" gi 703-sonli 28.07.2021-yildagi qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. 9-moddasi
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.05.2017-yildagi 5059-son "Elektr energiyasi va tabiiy gaz yetkazib berish hamda iste'mol qilish sohasida to'lov intizomini yanada mustahkamlash, shuningdek, ijro ishi yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-

tadbirlari to'g'risida" gi farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.

4. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 03.01.2024-yildagi 1-sonli " Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimini isloh etish va sohani raqamlashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida " gi farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi ma'lumotlar milliy bazasi.
5. https://www.law.cornell.edu/rules/frcp/rule_69
6. <https://www.law.cornell.edu/constitution/articleiv>
7. <https://www.law.cornell.edu/uscode/text/28/566>
8. California Code of Civil Procedure, Division 2, Part 3.
<https://www.law.cornell.edu/uscode/text/28/566>
9. Zivilprozessordnung (ZPO) - <https://www.gesetze-im-internet.de/zpo/>
10. O'zbekiston Respublikasining " Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida" gi 29.08.2001-yildagi 258-II-son qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
11. <https://library-tsul.uz/ru/fuqarolik-protsessual-huquqi-xabibullayev-d-2023/> Xabibullayev Davlatjon Yulchiboyevich . Fuqarolik protsessual huquqi. Toshkent- 2023; bet 147
12. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi 22.01. 2018